O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 159.9:316.362.1

Dilafruz BARATOVA,
Dotsenti v.b., PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
E-mail: dilafruzbaratova88@gmail.com, ORCID: 0009-0003-0373-9927

QarDU professori, DSc M.Fayziyeva taqrizi asosida

MEHNAT MIGRATSIYASI SABABLI VAQTINCHA NOTO‘LIQ BO‘LGAN OILALARDA ER-XOTIN MUNOSABATLARI VA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada otaning (erning) uzoq muddatli mehnat migratsiyasi tufayli vaqtincha noto‘liq shaklda yashayotgan oilalarda oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, hissiy intilish, o‘zaro hurmat va nikohdan qoniqish dinamikasi hamda ularning farzand tarbiyasiga ta’siri tahlil qilingan. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi 310 nafar respondent ishtirokidagi tadqiqot natijalariga ko‘ra, migrant oilalarda nikohdan qoniqish turmush staji ortgan sari izchil pasayadi, migratsiya muddati uzayishi bilan esa simpatiya va xotirjamlik kamayadi, 6–10 yillik ayriliq davrida o‘zaro tushunish va hurmat eng past darajaga tushadi. Oilani saqlab qolish yuki asosan onaning zimmasiga tushishi, otaning farzand hayotida ko‘proq moddiy ta’minotchi sifatida namoyon bo‘lishi asoslangan va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, vaqtincha noto‘liq oila, er-xotin munosabatlari, nikohdan qoniqish, o‘zaro tushunish, o‘zaro hurmat, ona roli, ota obrazi, farzand tarbiyasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ И ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЯХ, ВРЕМЕННО СТАВШИХ НЕПОЛНЫМИ ВСЛЕДСТВИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация

В статье рассматриваются перераспределение семейных ролей, динамика взаимопонимания, эмоционального притяжения, взаимного уважения и удовлетворённости браком у супругов в семьях, которые в связи с длительной трудовой миграцией отца временно функционируют как неполные, а также влияние этих процессов на воспитание детей. Эмпирическое исследование проведено в Бухарской, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях на выборке из 310 человек. Установлено, что удовлетворённость браком последовательно снижается с увеличением стажа; симпатия и спокойствие уменьшаются с увеличением срока миграции, а в период разлуки 6–10 лет взаимопонимание и уважение достигают наименьших значений. Показано, что основная нагрузка по сохранению семьи ложится на мать; предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: трудовая миграция, временно неполная семья, супружеские отношения, удовлетворённость браком, взаимопонимание, взаимное уважение, роль матери, образ отца, воспитание детей.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SPOUSAL RELATIONS AND CHILD UPBRINGING IN FAMILIES TEMPORARILY INCOMPLETE DUE TO LABOUR MIGRATION

Annotation

The article examines redistribution of family roles, dynamics of mutual understanding, emotional attraction, mutual respect and marital satisfaction in families temporarily incomplete due to the father's long-term labour migration, and the effect of these processes on child upbringing. The empirical study was carried out in Bukhara, Kashkadarya and Surkhandarya regions with 310 respondents. In migrant families marital satisfaction declines steadily with length of marriage; sympathy and calmness decrease as migration extends; after 6–10 years of separation mutual understanding and mutual respect reach their lowest level. The main burden of keeping the family together falls on the mother. Practical recommendations are offered.

Key words: labour migration, temporarily incomplete family, spousal relations, marital satisfaction, mutual understanding, mutual respect, role of the mother, father image, child upbringing.

Kirish. Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi ko‘plab mamlakatlar qatori O‘zbekiston uchun ham aholining katta qismi hayotiga bevosita daxldor ijtimoiy hodisaga aylandi. Oila boshlig'ining xorijga ishlash uchun ketishi oila byudjetini mustahkamlasa-da, oilaning ichki hayotini tubdan o‘zgartiradi: rasman buzilmagan, nikohi saqlanib turgan oila kundalik turmushda yillar davomida noto‘liq oila sifatida yashaydi. Bunday oilalarni "vaqtincha noto‘liq" yoki migrant oilalar deb atash o‘rinli bo‘lib, ular ajrim yoki ota-onadan birining vafoti oqibatida yuzaga keladigan noto‘liq oilalardan farq qiladi: ota hayot, u oilani moddiy ta’minlaydi, ammo uning jismoniy va hissiy ishtiroki uzoq muddat yetishmaydi.

Mamlakatimizda mehnat migratsiyasini tartibga solish va migrantlar oilasini qo‘llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son qarori [1] hamda 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son Farmoni [2] migrantlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan. Biroq migratsiyaning oila ichidagi psixologik oqibatlari – er-xotin munosabatlarining sovushi, onaning ikki tomonlama yuklamasi, farzandning ota haqidagi tasavvurlarining torayishi – huquqiy choralar bilangina hal bo‘ladigan masala emas.

Oila tizim sifatida qaralganda uning har bir a’zosi muayyan rol va vazifani bajaradi, bir a’zoning uzoq muddat yo‘qligi esa butun tizimning qayta qurilishini talab qiladi. Otaning migratsiyasi oqibatida oilada uch darajadagi o‘zgarish yuz beradi: er-xotin munosabatlari masofaviy shaklga o‘tadi; ona-bola munosabatlari kuchayib, ko‘pincha onaning ham ota, ham ona vazifasini bajarishi bilan murakkablashadi; ota-bola munosabatlari esa asosan telefon va internet orqali davom etadi.

Tadqiqotning maqsadi – mehnat migratsiyasi sababli vaqtincha noto‘liq bo‘lgan oilalarda er-xotin munosabatlari turmush staji, migratsiya muddati va jinsga ko‘ra qanday o‘zgarishini migratsiyada bo‘lmagan oilalar bilan qiyosiy aniqlash hamda bu o‘zgarishlarning ona roli va farzand tarbiyasidagi aksini ochib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Migratsiyaning oila-nikoh munosabatlariga ta’siri MDH mamlakatlarida keng o‘rganilgan. G.F.Hilajeva translokal migratsiya oilaning ichki tizimini o‘zgartiruvchi omil bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy foyda bilan bir qatorda uy xo‘jaligi, farzand tarbiyasi va emotsional farovonlikda qator muammolarni keltirib chiqarishini aniqlagan [3]. V.V.Gritsenko va hamkasblari migrant oilalar nikohdan qoniqishni saqlab qoluvchi moslashuv mexanizmlariga ega ekanini, biroq ayollarda o‘zaro tushunish darajasi pastroq bo‘lganini ko‘rsatgan [4]. D.M.Vinokurova ayollar migratsiyaga ketishni ko‘proq tashqi omillar, erkaklar esa hissiy-psixologik sabablar bilan izohlashini aniqlagan [5].

G.Engbersen va hamkasblari mehnat migratsiyasining to‘rt turini ajratgan; migrantning vatanga bog'liqligi zaiflashgan sari oilaning ota bilan hissiy aloqasi ham sustlashadi [6]. O‘zbekistonda X.Abdusamatov er-xotinning uzoq muddat ajralib yashashi sharoitida ulg'ayayotgan bolalarda o‘ziga baho pasayishini ($r = –0,348$; $p \leq 0,01$) aniqlagan [10]. G.Niyazmetova tadqiqotlarida nikohdan qoniqish turmushning 3–4-yillarida eng yuqori bo‘lib, 4–7-yillar inqiroz davri sifatida namoyon bo‘lishi, 20-yildan so‘ng esa yana ko‘tarilishi ko‘rsatilgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Empirik tadqiqot Buxoro (101 nafar; 32,5%), Qashqadaryo (99 nafar; 32%) va Surxondaryo (110 nafar; 35,5%) viloyatlarida o‘tkazildi; jami 310 nafar respondent (140 nafar erkak, 170 nafar ayol) ishtirok etdi [15]. Asosiy guruh – vaqtincha noto‘liq oilalar vakillari (n = 162; 75 migrant er va 87 uyda qolgan xotin). Qiyosiy guruh – birga yashovchi oilalar (n = 148). Migrant oilalar turmush staji (1–5 yil, 6–10 yil, 11–15 yil) va migratsiya muddatiga (1–5 yil, 6–10 yil, 11+ yil) ko‘ra guruhlantirildi.

Psixodiagnostik vositalar: Y.E.Aleshina va L.Y.Gozmanning “Nikohdan qoniqqanlik” metodikasi [12], A.N.Volkovaning “O‘zaro tushunish, emotsional intilish, o‘zaro hurmat” so‘rovnomasi, L.Y.Gozman va Y.E.Aleshinaning “Simpatiya va sevgi shkalasi”, A. Uessman va D. Riksning "Emotsional holatda o‘zini baholash" metodikasi. Ma’lumotlar Mann–Uitni U-mezoni, Kruskal–Uollis H-mezoni va Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida SPSS 24.0 dasturida qayta ishlandi.

Tahlil va natijalar. Nikohdan qoniqishning umumiy darajasi migrant va migratsiyada bo‘lmagan oilalar o‘rtasida statistik farq qilmadi (o‘rtacha ranglar 152,76 va 149,29; $U = 11061$; $p = 0,729$). Biroq turmush staji bo‘yicha tahlil tub farqlarni ochib berdi (1-jadval).

1-jadval. Nikohdan qoniqish ko‘rsatkichining turmush stajiga ko‘ra farqlari (o‘rtacha rang)

Oila guruhi	1–5 yil	6–10 yil	11–15 yil	H / p
Migrant (vaqtincha noto‘liq) oilalar, n = 162	103,81(n=35)	66,82(n=43)	62,87(n=84)	H=21,713p<0,01
Migratsiyada bo‘lmagan oilalar, n = 148	71,18(n=46)	50,87(n=31)	86,96(n=71)	H=15,731p<0,01

Izoh: o‘rtacha ranglar har bir oila guruhi ichida alohida hisoblangan; H – Kruskal–Uollis mezoni.

Migratsiyada bo‘lmagan oilalarda nikohdan qoniqish "U" shaklidagi qonuniyatga bo‘ysunadi: 6–10 yillik bosqichda pasayadi, 11–15 yillik bosqichda esa tikllanadi. Migrant oilalarda esa qoniqish tiklanmaydi: u 1–5 yillik yosh oilalardagi eng yuqori darajadan 6–10 yillik bosqichda keskin tushadi va 11–15 yillik bosqichda ham pasayishda davom etadi.

Korrelyatsion tahlil: turmush staji o‘zaro tushunish ($r=0,253$; $p<0,01$) va hurmat ($r=0,242$; $p<0,01$) bilan ijobiy; migratsiya muddati esa tushunish ($r=–0,286$; $p<0,01$) va hurmat ($r=–0,168$; $p<0,05$) bilan manfiy bog'langan. 6–10 yillik ayriliq davrida o‘zaro tushunish ($H=21,279$; $p<0,01$) va hurmat ($H=29,696$; $p<0,01$) eng past nuqtaga tushadi. Simpatiya ham ayriliq uzaygan sari kamayadi (84,40 → 69,29 → 45,61; $H=11,154$; $p<0,01$).

Oiladagi rollarning qayta taqsimlanishi jins tafovutlarida aniq namoyon bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval. O‘zaro tushunish, hissiy intilish va o‘zaro hurmat ko‘rsatkichlarining jins tafovutlari (o‘rtacha rang)

Shkalalar	Migrant oilalar (n=162)				Migratsiyada bo‘lmagan oilalar (n=148)			
Shkalalar	Erkaklar(n=75)	Ayollar(n=87)	U	p	Erkaklar(n=65)	Ayollar(n=83)	U	p
O‘zaro tushunish	61,75	89,53	1845,5	0,000**	71,35	75,13	2479	0,589
Hissiy intilish	71,19	81,77	2497	0,139	62,98	81,48	1952	0,009**
O‘zaro hurmat	63,54	88,05	1969,5	0,001**	71,75	74,83	2504,5	0,662

Izoh: ** – $p < 0,01$; U – Mann–Uitni mezoni.

Migrant oilalarda ayollar erkaklarga nisbatan o‘zaro tushunish (89,53 va 61,75; $p<0,001$) va o‘zaro hurmat (88,05 va 63,54; $p=0,001$) bo‘yicha ancha yuqori natija ko‘rsatdi. Er uzoqda bo‘lganda munosabatlarni saqlab turish vazifasi asosan ayol zimmasiga o‘tadi. Migrant oilalardagi ayollarda praksik emotsiyalar (93,65 va 56,73; $p<0,001$), erkaklarda esa glorik (90,67 va 65,77; $p<0,01$) va romantik (89,25 va 66,93; $p<0,01$) emotsiyalar ustun. Ona bolaning kundalik hayotida "ikki rolli" tarbiyachiga, ota esa "uzoqdagi ta’minotchi"ga aylanadi.

Farzandlar soni migrant oilalarda nikohdan qoniqish ($r=–0,234$; $p<0,01$) va ruhiy holat ko‘rsatkichlari bilan manfiy bog'langan. Masofadagi nikohda his-tuyg'ular qoniqishning yagona manbai bo‘la olmaydi – ularning o‘rnini burch, mas'uliyat va hurmat egallaydi. O‘zaro hurmat xotirjamlik ($r=0,191$; $p<0,05$) va yuksalish hissi ($r=0,217$; $p<0,01$) bilan bog'liq bo‘lib, er-xotin o‘rtasidagi hurmatni saqlash ota-onaning ruhiy barqarorligini – farzand tarbiyasining asosiy shartini mustahkamlaydi.

Olingan ma’lumotlar farzand tarbiyasi uchun bir necha muhim oqibatni ko‘rsatadi. Birinchidan, masofadagi muloqot asosan maishiy-moliyaviy mavzular bilan cheklanadi, natijada bola otani ko‘proq pul jo‘natuvchi sifatida idrok etadi. Ikkinchidan, ota-onaning hissiy holati – onadagi zo‘riqish, otadagi aybdorlik hissi – bolaga bevosita uzatiladi. Uchinchidan, bolaning ota haqidagi refleksiv tasavvurlari izchil emas, ota obrazini ideallashtirish holatlari kuzatiladi [15]. Bu ta’sirning kuchi onaning otaga bo‘lgan munosabatiga bog'liq: ona tomonidan saqlanib turgan hurmat va tushunish

uzoqdagi otaning obrazini bola ongida ijobiy saqlab qoluvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. 1) Mehnat migratsiyasi nikohdan qoniqishning umumiy darajasini pasaytirmaydi, ammo uning dinamikasini o‘zgartiradi: migrant oilalarda turmush staji ortgan sari qoniqish izchil pasayadi. 2) 6–10 yillik ayriliq davri o‘zaro tushunish va hurmat eng past bo‘lgan "xavfli davr". 3) Migrant oilada munosabatlarni saqlash va farzand tarbiyasining asosiy yuki onaga o‘tadi. 4) Farzandlar sonining ortishi migrant oilada nikohdan qoniqish va ruhiy holatning pasayishi bilan bog'liq. 5) Bolaning ota haqidagi tasavvuri migrant oilada asosan moddiy ta’minotchi obraziga torayadi.

Amaliy takliflar: mahalla va maktab psixologlari migrant oilalar bilan ishlashda 6–10 yillik staj guruhini ustuvor belgilab, o‘zaro tushunishni tiklashga qaratilgan treninglar tashkil etsin; uyda qolgan onalar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlari yo‘lga qo‘yilsin; xorijga ketish oldidan er-xotinga "masofaviy otalik" ko‘nikmalari o‘rgatilsin; maktab psixologlari migrant oilalar farzandlari bilan guruhiy mashg'ulotlar orqali otaning ijobiy obrazini shakllantirishga e'tibor qaratsin; migrantning vatanga qaytishi davrida oilaviy reintegratsiya bo‘yicha kompleks dastur ishlab chiqilsin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi PQ-4829-son qarori // https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a’zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g'risida"gi PF-5785-son Farmoni // https://lex.uz
3. Хилажева Г.Ф. Современная семья в контексте транслокальной миграции // Женщина в российском обществе. – 2021. – № 1. – С. 68–82.
4. Гриценко В.В. ва б. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. – Смоленск, 2014.
5. Винокурова Д.М. Миграция и семейно-брачные отношения // Арктика и Север. – 2012. – № 9.
6. Engbersen G. et al. On the differential attachments of migrants from Central and Eastern Europe // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2013. – Vol. 39, № 6. – P. 959–981.
7. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. Психологическая адаптация вынужденных мигрантов // Психологический журнал. – 2002. – Т. 23. – № 4. – С. 66–81.
8. Тарновска-Якобес У. Социализация в семьях с дистантным отцовством. – М., 2005.
9. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida: falsafa fan. nomz. … diss. – T., 2022.
10. Abdusamatov X. Noto‘liq oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari: psixol. fan. dok. … diss. avtoref. – T., 2022.
11. Niyazmetova G. O‘zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasi: psixol. fan. nomz. … diss. avtoref. – T., 2010.
12. Алёшина Ю.Е. Удовлетворённость браком и межличностное восприятие в супружеских парах: автореф. дис. – М., 1985.
13. Fayziyeva M.X. Oila psixologiyasi. – Qarshi: Nasaf, 2018. – 138 b.
14. Baratova D. Noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolalarning oiladagi rollar va otalik maqomi to‘g'risidagi tasavvurlari // O‘zMU xabarlari. – 2024. – [1/8]. – B. 53–55.
15. Baratova D.O. Noto‘liq oilalarda farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: monografiya. – Qarshi, 2026.